

# BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATIGA QO'YILGAN TALABLAR

*Tayirov Mansur Anarboyevich*

*Jizzax davlat pedagogik instituti*

*“Umumiy pedagogika” kafedrasida o'qituvchisi*


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatiga qo'yiladigan talablar haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy madaniyat, professionallik, zamonaviylik, axloqiy yetuklik, kasbiy tayyorgarlik.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida pedagogik kadrlarning o'rnini beqiyosdir. Chunki, bu toifa kadrlar yosh avlodni munosib tarbiyalash ishini amalga oshiradi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy madaniyatini talab darajasida rivojlantirish dolzarb masaladir.

Demokratik jamiyat va bazor iqtisodi sharoitida o'qituvchi shaxsining vazifalari kengayishi va buning natijasida kasbiy mas'uliyatining ortishi kuzatilmoqda. Shu ma'noda o'qituvchining kasbiy madaniyati zamonaviy ehtiyojlarga javob berishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi muammolarni hal etishda asos bo'lishi kuzatilmoqda.

O'qituvchining kasbiy madaniyati amaliy tusga ega fenomendir, u o'qituvchi faoliyatining barcha jihatlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli barcha fasonlarda o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Chunki, ana shunday talablarni qoniqtirish va javob berish maqsadida o'qituvchining kasbiy madaniyati shakllantiriladi. O'qituvchi kasbiy madaniyati xususiyatida professionallik, bilimdonlik va zamonaviylik muhim o'rin tutadi. Bu komponentlarning tuzilmasini quyidagicha belgilash mumkin:



### ***1-chizma. O'qituvchi kasbiy madaniyatining komponentlari.***

Hozirgi zamon o'qituvchisining kasbiy madaniyatini bunday komponentlar tizimida qabul qilish asoslardan xoli emas. Chunki, aynan kasb, bilim, va zamon omillari o'qituvchi faoliyatiga bo'lgan talab va ehtiyojlarga javob beradi. Jumladan, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'qituvchiga nisbatan bir qator talablar qo'yilgan yoki ilmiy tadqiqotlarda ko'plab yondashuvlar bayon qilingan. Lekin, ularning barchasi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilangan quyidagi talablarga kelib tutashadi:

- 1). Tegishli kasbiy ma'lumotga ega bo'lish;
- 2). Kasb tayyorgarligi bor bo'lishi;
- 3). Axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;
- 4). Sud hukmi bilan ta'lim muassasalarida faoliyat yuritishi man etilmagan bo'lishi (1).


Bu talablar hozirgi zamon o'qituvchisi kasbiy madaniyatini kasbiy, axloqiy va faoliyat jihatlaridan shakllantirishni taqozo etadi. Ayni paytda, qonunning bu

moddasini to'ldirish ehtiyoji bor, chunki unda o'qituvchi vakolatlari o'z ifodasini topmagan. Shu sababli, pedagogik adabiyotlarda turlicha talab qo'yib kelinmoqda. Misol uchun, O'qituvchilar tayyorlash ta'lim yo'nalishi darsligi mualliflari hozirgi zamon o'qituvchisiga quyidagi talablarni qo'yishgan.

- 1). Jamiyat hayotidan xabardor bo'lish;
- 2). Zamonaviy texnologiyalarni bilish;  
o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish;
- 3). Pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish;
- 4). Ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalarni tanlay olish;
- 5). Ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchi bo'lish;
- 6). Yuksak darajadagi mahoratga ega bo'lish;
- 7). Notiq bo'lish;
- 8). Kiyinish madaniyatini bilish;
- 9). Ibratli shaxsiy hayot kechirish (2).

Albatta, bu talablar asoslarga ega. Ammo, ularga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash asosiy masaladir. Shu sababli ham o'qituvchi kasbi madaniyatining tarkibi va tuzilmasi kengayib bormoqda. Bu davr taraqqiyotining hosilasidir. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, ta'lim turlari bo'yicha o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar spesifik xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Hozirgi zamon o'qituvchisining kasbiy madaniyatini umumiylik xususiyatiga ega bo'lishi idrok etiladi. Unda individual va umumiy sifatlar uyg'unlashadi. Shu ma'noda biz o'qituvchi kasbiy madaniyatida layoqatlik, malakalik va baholash komponentlari ustuvor bo'ladi, - degan fikrdamiz. E'tibor bering:



**2-chizma. O'qituvchi kasbiy madaniyatining mazmuni**

O`qituvchi madaniyatida kasbiy layoqatlik o`z sohasida etuklik, mahoratlik va namuna bo`lish komponentlarini kamrab oladi. Bu ko`nikma oliy ta`lim jarayonida nazariy shakllantiriladi va pedagogik faoliyatda takomillashib boradi. Shu sababli, o`qituvchining kasbiy etukligi faoliyat darajasiga qarab baholanishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Biz endi faoliyat boshlagan yosh o`qituvchidan tom ma`nodagi kasbiy etuklikni talab qila olmaymiz, undan nisbatan xarakterdagi etuklik darajasini kutamiz.

Axloqiy malakalik o`qituvchi kasbiy madaniyatida bilimlilik, axloqiy fazilatlik va demokratik munosabatlikni qamrab oladi. O`qituvchining axloqiy malakaligi oliy ta`lim jarayonida namoyon bo`la boshlaydi va faoliyat davomida takomillashib boradi. Bu o`rinda biz yosh o`qituvchidan axloqiy me`yor malakasi va fazilatlilikni kutishga haqlimiz. Oliy ta`lim jarayoni o`qituvchi axloqiy malakasini nazariy kuchaytiradi, xolos. Ba`zan korreksion vazifani bajavrishi mumkin, amma oliy ta`lim jarayoni axloqiy malakani kasbiy yo`naltirish masalasida muhim vazifani bajaradi.

O`qituvchi kasbiy madaniyatida o`z faoliyatini baholay olish ijodkorlik, texnologik, malakalik va samaradorlik komponentlarini mujassam etadi. O`qituvchining o`z faoliyatini nazorat qila olishi yoki faoliyatidan qoniqmasligi baholash jarayoni uchun muhim asosdir. Hozirgi kunda o`qituvchi faoliyatini tashqi kuchlar tomonidan baholash keng tus olgan, bu masalaning bir tomoni. Asosiy masala shundaki, o`qituvchining o`zi faoliyatini baholay olishi muhim ahamiyatga ega. Aynan mana shu nuqtada o`qituvchining kasbiy etukligi va axloqiy malakaligi namoyon bo`ladi. Kasbiy madaniyat darajasi baholash natijasida aniqlanadi.

Zero, biz kasbiy etuklik, axloqiy malakalilik va faoliyatni baholashni hozirgi zamon o`qituvchisi kasbiy madaniyatining asosiy komponentlari sifatida qabul qilamiz. Bunda oliy ta`lim jarayoni kasbiy madaniyatni shakllantirish, nazariy yo`naltirish va muayyan darajada korreksiyalash funksiyasini bajaradi. O`qituvchining amaliy faoliyati kasbiy madaniyatning namoyon bo`lishi, malakaning kuchayishi va tajribaning yuzaga kelishini ta`minlaydi. Besh yil va undan ko`p amaliy faoliyat tajribasiga ega bo`lgan o`qituvchidan kasbiy madaniyatni kutish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, hozirgi zamon o`qituvchisining xususiyati dinamik xarakterda

ekanligi bilan diqqatni tortadi. Bu masalada quyidagi xulosaga kelish mumkin:

*birinchidan*, o`qituvchi kasbiy madaniyati mazmunida professionallik, bilimdonlik va zamonaviylik komponentlari muhim o`rin tutadi;

*ikkinchidan*, o`qituvchi kasbiy madaniyati mazmunida o`qituvchi kasbiy madaniyatida kasbiy layoqatlik, axloqiy malakalik va faoliyatni baholash komponentlari ustuvor bo`ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi “Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni.// Oliy ta’lim me’yoriy-huquqiy hujjatlar to`plami.-T.:Istiqlol. 2004. 5-modda.

2. Xasanov J, To`raqulov X, Xaydarov M, Xasanboeva O, Usmanov N, Pedagogika fanidan izoxli lug`at. –T: Fan va texnologiya. 2009.-672 b.

3.Nishanova Z.T. va boshqalar „Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya”.-T.;O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2018.332-b

4.Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.

5.Qodirova, M. (2020). Особенности периода взросления подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.

6.Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI.

7.Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.

8.Qodirova, M. (2020). РОЛЬ ЗАНЯТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТИ РАЗМЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ. Архив Научных Публикаций JSPI.